



LEV TOLSTOYNING IQRORNOMA ASARIDAGI AXLOQIY IZLANISHLARI VA DINIY E'TIQODLAR TAXLILI

*Andijon davlat universiteti Sport va san'at fakulteti
Dastgohli rang-tasvir yo`nalishi 1-bosqich talabalari
To`xtamatova Xurshidabonu Nurmuhammad qizi
Yuldasheva Mehrinoz Abdusalim qizi*

Annotatsiya; Lev Tolstoyning “Iqrornoma” asari uning diniy e’tiqodlari, ma’naviy izlanishlari va falsafiy qarashlarini aks etiradi. Bu asarda yozuvchining xristianlik, axloqiy qadriyatlarini va dinning inson hayotidagi o’rni haqidagi fikrlarni bevosita ifodalanadi. Shuningdek , Tolstoyning boshqa dinlar xususan, Islom haqidagi tasavvurlari va ularning insoniyatni yaxshilashga bo’lgan ta’siri tahlil etilgan. Asarda uning axloqiy izlanishlari va dinning insoniy shaklini topishdagi o`rnii muhim o`rin tutadi. Ushbu maqolada, Tolstoyning e’tiqodlari, falsafiy qarashlari va bu qarashlarning boshqa dinlar, jumladan Islom bilan bog`liqligi keng tahlil qilinadi.

Kalit so`zlar; Lev Tolstoyning ‘Iqrornoma’ diniy e’tiqot , xristianlik, Islom dini , falsafiy qarashlar , axloqiy qadriyatlar, diniy izlanishlar, dinlararo muloqot , ma’naviyat, insoniyat.

Kirish.

Lev Tolstoyning “**Iqrornoma**” asari uning shaxsiy ma’naviy izlanishlari, diniy e’tiqotlarini va hayotga bo’lgan falsafiy qarashlarini o’zida aks ettiradi. Yozuvchi hayotining o`zgaruvchan davrlarida o`zini qayta kashf etgan va axloqiy , diniy savollarni o`rganish orqali ichki inqirozdan chiqishga harakat qilgan . Iqrornomada Tolstoy xristianlikka bo`lgan chuqur ishonchini ko`rsatgan bo`lsa-da , u boshqa dinlarga xususan Islomga ham e’tibor qaratgan . Uning diniy qarashlari va axloqiy prinsiplarini o`rganish nafaqat xristianlikni balki boshqa dinlarni ham tushunishga yordam beradi . Shu bilan birga , Tolstoyning falsafiy qarashlari diniy izlanishlari va axloqiy qadriyatları uning ma’naviy yuksalishi va dinlararo dialogga bo`lgan hurmatini ko`rsatadi.

“**Iqrornoma**”da Tolstoy diniy savollarga javob izlashda o`zining shaxsiy tajribalarini aks ettiradi . Yozuvchi uchun xristianlik- bu faqat tashqi marosimlar va aqidalarga asoslanmasdan , balki insoniyatni yaxshilash, axloqiy tozalikka erishish va samimi yashashni asosidir. Tolstoy xristianlikda sevgi , saxovat va



rahm-shavqatni asosiy qadriyatlar deb biladi va bu tushunchalarni hayotida amalyotga tatbiq etishga harakat qiladi. U uchun dinning mohiyati nafaqat xudoga bo`lgan ishonch, balki insonlar o`rtasidagi yaxshilik, adolat va haqiqiy axloqdir. “Bizning dinimiz barcha insonlar uchun umumiyligi bo`lishi kerak, chunki u faqat samimiyligini va sevgiga asoslanadi”.¹ (**Tolstoy, 1882**). Bu fikr dinning o`ziga xos mohiyatiga ega ekanligini anglatadi.

Tolstoyning diniy izlanishlaridagi muhim jihat shundaki u faqat xristianlikka emas, balki boshqa dinlarning axloqiy qadriyatlarga ham hurmat bilan qaraydi. “Diniy hayotimizni yaxshilashda va insoniyatni o`rganishga qaratilgan barcha dinlarni tushunishimiz kerak” (**Tolstoy, 1882**). Bu fikir Tolstoyning diniy qarashlarining unversaligini ko`rsatib va dinlararo muloqotning zarurligini takidlaydi.

Tolstoyning “Iqrornoma” asarida Islom haqida to`g`ridan to`g`ri gapirilmagan bo`lsa-da, uning dinlararo qarashlari jumladan Islomga bo`lgan tasavvurlari o`zining axloqiy tizimi bilan bevosita bog`liqdir. Tolstoy islamni ham xristianlikni o`xshash qadriyatlar asosida tushunadi. Islomda xristianlidagi kabi insoniyatni yaxshilash, o`zgarish va ma`naviy yuksalishning eng muhim qadriyatları ekanligini ko`rgan. “Islom ham odamlarning axloqiy mas’uliyatini oshirish va tinchlik yaratish uchun xizmat qiladi. Bu dinni faqat tashqi amallari bilan cheklash mumkin emas, uning asosiy mohiyati insonni yaxshilashga qaratilgan”. (**Romanov, 1995**).² Tolstoy Islomning insoniyatga xizmat qilish, saxovat qilishi va muhtojlarga yordam berish prinsiplarini o`zining diniy izlanishlarda muhim o`ringa qo`yadi.

Islomning “adolat, mehr – shavqat va rahm – shafqat” kabi qadriyatlarni Tolstoyning axloqiy tushunchalari bilan uyg`unlashadi. Bu qadriyatlarni xristianlik va islam o`rtasidagi bir – birini to`ldiruvchi elementlar sifatida qabul qilinadi. Tolstoy islamdagi ochiq –yurak, so`zda va amalda saxovatli bo`lish kabi tushunchalarni xristianlikni o`xshash qoidalari bilan solishtirgan. “Har bir dinning axloqiy muhiyati bir xil, ularning asosiy maqsadi insoniyatni yaxshilash va dumyoda tinchlik o`rnatishtir” (**Shmidt, 1999**).³

¹Tolstoy.L (1882) “Iqrornoma”

² Romanov.V.I (1995) ‘Tolstoy va diniy qarashlar’.

³ Shmidt, G. V. (1999). “Adabiyotshunoslik va diniy izlanishlar”



Tolstoyning “Iqrornoma” asaridagi falsafiy yondashuvlar va diniy e’tiqodlar o’rtasidagi bog`liqlik uning dinlararo tinchlikka bo`lgan ishonchidan iboratdir . U barcha dinlarning asosiy maqsadi – insoniyatni yaxshilash , dunyoni to`g`ri axloq bilan boshqarish ekanligini ta’kidlaydi . Islomning ahloqiy hayotga bo’lgan urg’usi va xristianlikning insoniylikga bo’lgan e’tibori Tolstoyning falsafiy qarashlari bilan uyg`unlashadi. “Insoniylik faqat diniy e’tiqodlarga asoslanmasdan , insonning ichki dunyosini yuksaltirish rahm-shafqat va adolatni ta’minlash orqali amalga oshadi”. (Uspenskiy , 2010).⁴

Tolstoy , faqat xristianlikda emas balki barcha dinlarda ham axloqiy qadriyatlarining o`xshashligini tushunadi . U dinlar o’rtasidagi farqlarni e’tirof etsa-da , ularning umumiy axloqiy tushunchalarini yuksaltirishda muhimligini ko`rsatadi . “Diniy dunyoqarashlarning farqlari bizni ajratmasligi kerak, aksincha , biz barcha dinlarni yaxshilik va axloqiy tozalikka bo`lgan umumiy istakda birlashtiruvchi unsur sifatida qabul qilishimiz zarur”.(Pantelev, 1996)⁵

Lev Tolstoyning “Iqrornoma” asari uning diniy falsafiy izlanishlarini insoniyatga bo`lgan qarashlarini xristianlik va Islom kabi dinlar o’rtasidagi o`xshashliklarni chuqur tahlil qilishga yordam beradi. Asarda diniy e’tiqodlar va axloqiy qadriyatlar o’rtasidagi uyg`unlikni , dinlararo muloqot va bir- birini tushunish zarurligi haqida fikrlar mavjud . Tolstoy barcha dinlarning asl maqsadi insoniyatni yaxshilash, dunyoda tinchlikni o`rnatish va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish deb biladi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Tolstoy L.(1882) ‘Iqrornoma’
2. Romanov,V.I (1995) ‘Tolstoy va diniy qarashlar’.
3. Shmidt, G.V. (1999). ‘Adabiyotshunoslik vz diniy izlanishlar ‘
4. Uspenskiy,V.A.(2010). ‘Tolstoyning ma’naviy yo’l ‘
5. Pantelev ,I .A .(1996).’Tolstoyning diniy fikrlari va ularning rivoji’

⁴ Uspenskiy,V.A.(2010). ‘Tolstoyning ma’naviy yo’l

⁵ Pantelev ,I .A .(1996).’Tolstoyning diniy fikrlari va ularning rivoji’